



PROFESSIONAL TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM SOATLARINI BAJARISH METODIKASI

Ustababayeva Xafiza Artikovna

*Bo'lim boshlig'i, Toshkent turizm va
mehmonxona menejmenti texnikumi*

Annotatsiya. Maqolada professional ta'lismida mustaqil ta'lism soatlarini bajarish metodikasi hamda uning muammolarini va mustaqil ta'lism soatlarini samarali tashkil etishning innovatsion yechimlariga oid izlanishlar berilgan.

Kalit so'zlar. mustaqil ta'lism, metodika, ta'lism soatlari, professional ta'lism, xalqaro tajriba, muammo, yechim.

Bugungi kundagi zamonaviy ta'lism tizimida nazariy dars mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlardan tashqari mustaqil ta'lism orqali o'quvchilar kasbiy kompetentliligin rivojlantirish o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Professional ta'lism tizimida mustaqil ta'lism o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyat, kompetensiyalarini kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarini joriy etish zamon talabidir. Mustaqil ta'lism o'quvchilar-da tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. O'z tadqiqotlarini tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlanadi. O'quvchilar fanga tegishli bilimlarni 40 - 50 foizini bevosita mustaqil o'rganish orqali o'zlashtiradi. Mustaqil ta'lism o'quvchilarga tabaqlashtirilgan topshiriq-lar berish imkonini ham beradi. Mustaqil ta'lism individual yondashuv, akademik tanloving xilma - xilligi bilan o'quvchilarni ko'proq jalg etadi. Mustaqil izlanish natijasida turli manbalar bilan tanishish o'quvchi dunyoqarashi rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllanadi. Shuningdek, mustaqil o'qish muammolar yechimi bo'yicha jamoaviy muhokamalarda yetakchi mavqeni egallash uchun zamin yaratadi. AQSHda talaba va o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil ish natijalari amaliyotda foydalanilganlik daraja-si inventarizatsiya qilinadi. Shuningdek, "keyslar to'plami usuli" keng foydalani-ladi. Mazkur metod pedagogik bilimlarni o'qituvchi tomonidan qanday qo'llanilishi va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Ushbu o'qitish usullarini amalga tatbiq etishdan maqsad, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdir. Ular turli fondlar va byudjet tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, turli xil ishlab chiqarish korporatsiyalari bilan yaqindan bog'langan. Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati va intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta'lism, fan va ishlab chiqarishning o'zaro



samarali aloqadorligi professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirgan. Buyuk Britaniya-da esa mustaqil ta'lim tizimidan foydalanib bilim olishga qiziqish 39,7 foizni tashkil etadi [2]. Bu esa o'z navbatida dars o'tadigan o'qituvchiga ham mas'uliyat yuklaydi. O'quvchini tajribalar o'tkazishga qiziqtiradi.

Ayni vaqtida professional ta'lim tizimida mustaqil ta'lim ishlarini bajarish bilan bog'liq ba'zi muammolar mavjud. Bu eng avvalo o'quvchilarining mustaqil ta'limni amalga oshirishga motivatsiyaning kamligi, bajarilgan mustaqil ta'lim natijalariga e'tiborsizlik, mustaqil ta'lim xajmi bo'yicha tizim mavjud emas. Ayniqsa, birinchi bosqich o'quvchilarida mustaqil ta'lim haqida ma'lumotga ega emas. Buning asosiy sababi esa umumta'lim maktablarida mustaqil ta'lim haqida fundamental tushuncha berilmasligi bilan bog'liq. Mustaqil ta'limga psixologik tayyorgarlikning yo'qligi, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi, o'quv fanlariga kognitiv qiziqishning mavjud emasligi asosiy muammolardandir. Mustaqil ish mavzulari aniq mavzudagi biror muammo tadqiqotni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi yoki qo'shimcha izlanish, o'qib o'rganishga yo'nalgan bo'lishi lozim. Ammo bugungi kunda fanlar bo'yicha mustaqil ish mavzulari maqsadsiz yoki ma'lum muammoni hal qilishga yo'naltirilmagan. Mustaqil ish mavzularini berishda o'quvchining psixologik va fiziologik imkoniyatlarini ham inobatga olish lozim. Mustaqil ishni baholash tizimida ham muammo mavjud. Shu bilan bir qatorda teskari aloqa tizimi yetarli darajada ishlamaydi. Ya'ni o'quvchi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlikda o'qituvchi va talaba faoliyati ko'zga tashlanmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchini baholash bilan yakunlanadi. Mustaqil ish nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchini ham ishlashiga olib kelishi lozim. O'qituvchi faqat shaxsiy tajribasi yoki bilimlari doirasida emas, balki fanning dolzarb masalalari to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Individual nostandard topshiriqlar ya'ni kazus texnologiya-sining ta'lim tizimiga to'liq joriy etilmaganligi mustaqil ta'lim samaradorligi pasayishiga olib kelmoqda. Xulosa chiqarish va uni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar yetishmaydi. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshiruvchi yagona yo'l uning bevosita kasbiy faoliyat bilan bog'lash hisoblanadi, kasbiy faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga o'quvchilarini chiniqtirish zarur. Ammo mustaqil ishni bajarishga zaruriy fundamental adabiyotlar yetishmasligi, o'qituvchilarining mustaqil ish uchun faqat umumiylasalarni belgilash davom etmoqda. O'quv jarayonida mustaqil ishni bajarish davomida olingan bilim, kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi.



Xulosa. Fan yuzasidan baholash mezonlari mustaqil ta'lim samaradorligiga va amaliyotga joriy qilish darajasiga qarab belgilash. Mustaqil ta'limni baholashda o'qituvchi talabaning faqat konspektiga yoki asosan og'zaki javobiga emas uni innovatsion yondashishiga, turli xil kreativ metodlardan foydalanib kasbiy faoliyatga oid muammolarni yechimini berishiga ko'proq e'tibor qaratishi kerak [3]. Har bir soha yo'nalishidan kelib chiqib, baholash mezonlari individual ishlab chiqilishi lozim. O'quvchi bilimi va ko'nikmalarini xorij tajribasini inobatga olgan holda alohida baholash mezonlarini ishlab chiqilishi kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 741 w June 2021 www.oriens.uz
2. Karimova, V. M., & Akramova, F. A. (2000). Psixologiya (ma'ruzalar matni). Nodira ALAVUTDINOVA, Muqaddas ABDURAHMONOVA.
3. https://uza.uz/oz/posts/mustaqil-talim-muammolari-va-oziga-xos-yechimlar_447423
4. N.Abduraxmonova "Pedagogik innovatsiya" ma'ruzlar matni – Andijon, 2019 y